



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

GERMANY

CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SCIENCE, ENGINEERING AND
TECHNOLOGY**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi[®] digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY:
a collection scientific works of the International scientific conference –
Hamburg, Germany, 2026 Issue 6

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference « **INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY** ». Which took place in Hamburg 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



MESOPOTAMIYA - INSONIYAT SIVILIZATSIYASINING ILK MANZILI

Turdiyeva Aziza Yo'ldosh qizi

Termiz davlat universiteti, Tarix yo'nalishi, 2-kurs talabasi

Jumayev Mustafo Erkin o'g'li

Ilmiy rahbar: Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada insoniyat tarixidagi eng qadimgi sivilizatsiyalardan biri - Mesopotamiya sivilizatsiyasi tahlil qilingan. Ikki daryo (Dajla va Frot) oralig'ida vujudga kelgan bu o'lka nafaqat birinchi shaharlarning, balki yozuvning, davlatchilikning va yozma qonunchilikning ham beshigi bo'lgan. Ishda Shumer, Akkad, Bobil va Ossuriya davlatlarining shakllanish bosqichlari, ularning ijtimoiy-siyosiy tuzumi, xo'jaligi, dini va madaniy merosi, jumladan mixxat yozuvi hamda Hammurapi qonunlari kabi masalalar yoritilgan. Xulosa qismida Mesopotamiya sivilizatsiyasining jahon tsivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi umumlashtirilgan.

Kalit so'zlar: Mesopotamiya, Dajla va Frot, Shumer, Akkad, Bobil, Ossuriya, mixxat yozuvi, Hammurapi qonunlari, qadimgi Sharq, sivilizatsiya.

АННОТАЦИЯ

В данной самостоятельной работе анализируется одна из древнейших цивилизаций в истории человечества — цивилизация Месопотамии. Территория, возникшая между двумя реками — Тигром и Евфратом, стала колыбелью первых городов, письменности, государственности и первых письменных законов. В работе освещены этапы формирования государств Шумера, Аккада, Вавилонa и Ассирии, их общественно-политический строй, хозяйство, религия и культурное наследие, включая клинописную письменность и Законы Хаммурапи. В заключении обобщён вклад месопотамской цивилизации в развитие мировой цивилизации.

Ключевые слова: Месопотамия, Тигр и Евфрат, Шумер, Аккад, Вавилон, Ассирия, клинопись, Законы Хаммурапи, Древний Восток, цивилизация.

ANNOTATION

This independent research examines one of the earliest civilizations in human history — the civilization of Mesopotamia. Formed between the Tigris and Euphrates rivers, this land became the cradle of the first cities, writing, statehood, and written law. The paper covers the stages of formation of the Sumerian, Akkadian, Babylonian, and Assyrian states, their socio-political structure, economy, religion, and cultural



heritage, including cuneiform writing and the Code of Hammurabi. The conclusion summarizes the contribution of Mesopotamian civilization to the development of world civilization.

Keywords: Mesopotamia, Tigris and Euphrates, Sumer, Akkad, Babylon, Assyria, cuneiform writing, Code of Hammurabi, Ancient Near East, civilization.

Insoniyat tarixida shahar madaniyati, davlatchilik va yozuv birinchi marta aynan qaysi hududda paydo bo'lgani haqida gap ketganda, tarixchilarning aksariyati bir ovozdan Mesopotamiyani tilga oladi. "Ikki daryo oralig'i" ma'nosini anglatuvchi bu atama qadimgi yunon tilidan kelib chiqqan bo'lib, hozirgi Iroq hududi, qisman Suriya va Turkiyaning janubiy-sharqiy qismlarini o'z ichiga oladi

Mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy davlatchilik, huquq, yozuv va ilmfan tizimlarining ildizlarini tushunish uchun aynan Mesopotamiya tajribasini o'rganish zarur. Mesopotamiyada yaratilgan mixxat yozuvi, sug'orma dehqonchilik tizimi, birinchi shahar-davlatlar va yozma qonunlar insoniyat sivilizatsiyasining keyingi bosqichlariga bevosita ta'sir ko'rsatgan

Mesopotamiya tarixini o'rganish yangi bosqichga XIX asr o'rtalarida, arxeologik qazishmalar boshlangach o'tdi. Ayni davrda Nineviya, Ur va Bobil xarobalaridan minglab mixxat lavhalari topilib, ular olimlarga bu sivilizatsiya haqida bevosita yozma manbalar asosida xulosa chiqarish imkonini berdi. Shundan buyon Mesopotamiyashunoslik (assiriologiya) mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllangan va bugungi kungacha faol rivojlanib kelmoqda

Ushbu maqolaning ning maqsadi, Mesopotamiya sivilizatsiyasining shakllanish bosqichlarini, uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy xususiyatlarini yaxlit tarzda yoritish hamda uning jahon tsivilizatsiyasi rivojidagi o'rnini aniqlashdir. Ishda tarixiy-qiyosiy va tavsifiy tahlil usullaridan foydalanilgan, mavzu yuzasidan mavjud ilmiy adabiyotlar tahlil qilingan.

Mesopotamiya Dajla (Tigr) va Frot (Yevfrat) daryolari oralig'ida, Fors ko'rfazi bilan Armaniston tog'lari orasida joylashgan. Bu hudud iqlim jihatidan issiq va quruq bo'lib, yog'ingarchilik juda kam edi, biroq har yili daryolarning toshishi natijasida hosildor loyqa tuproq qatlami hosil bo'lardi. Aynan shu hodisa mahalliy aholini sug'orish tizimlarini yaratishga undagan .

Tabiiy sharoit qulay bo'lmasa-da, inson mehnati bilan sug'orma dehqonchilik yo'lga qo'yilgani bois Mesopotamiya "Unumdor yarim oy" deb nomlangan mintaqaning markaziy qismini tashkil etgan. Kanal va to'g'onlar qurish, suv



taqsimotini boshqarish esa jamoaviy mehnatni, demak dastlabki boshqaruv tizimlarini talab qilgan. Ko'pgina tarixchilar buni davlatchilikning paydo bo'lish sabablaridan biri deb hisoblaydi.

Hudud tabiiy resurslarga, xususan, toshga, metalga va yog'ochga kambag'al edi, shu sababli mesopotamiyaliklar qo'shni o'lkalar Eron, Kichik Osiyo va hatto Hind vodiysi bilan faol savdo aloqalarini yo'lga qo'yishgan. Bu savdo aloqalari sivilizatsiyalar o'rtasidagi madaniy almashinuvni ham ta'minlagan.

Shuningdek, daryolarning har yili notekis toshishi mesopotamiyaliklarni suv sathini nazorat qilish, zaxira omborlarini yaratish va toshqinlarga qarshi to'g'onlar qurishga majbur qilgan. Bunday tabiiy sinovlar aholida uzoq muddatli rejalashtirish va jamoaviy intizom madaniyatini shakllantirgan bo'lib, ko'plab tadqiqotchilar buni Mesopotamiyada ilk davlat institutlari va yozma hisobot tizimlarining tezroq rivojlanishiga sabab bo'lgan omillardan biri sifatida baholaydi.

Mesopotamiya tarixidagi birinchi yirik sivilizatsiya Shumer edi. Miloddan avvalgi IV ming yillik oxiri III ming yillikda Janubiy Mesopotamiyada Ur, Uruk, Lagash, Kish kabi shahar-davlatlar vujudga keldi. Har bir shahar-davlat o'z hukmdori, ma'budi va qonunlariga ega mustaqil siyosiy birlik bo'lgan.

Miloddan avvalgi XXIV asrda Akkad hukmdori Sargon Shumer shahar-davlatlarini birlashtirib, tarixdagi birinchi markazlashgan imperiyalardan birini barpo etdi. Bu davlat boshqaruv tizimi keyingi barcha Mesopotamiya imperiyalari uchun namuna bo'lib xizmat qildi.

Miloddan avvalgi II ming yillikda kuchga kirgan Bobil davlati, ayniqsa Hammurapi (mil. avv. 1792-1750-yillar) hukmronligi davrida, Mesopotamiyaning yetakchi kuchiga aylandi. Hammurapi nafaqat harbiy yo'l bilan hududlarni birlashtirdi, balki yagona yozma qonunlar to'plamini yaratib, davlat boshqaruvini markazlashtirdi.

Shimoliy Mesopotamiyada esa Ossuriya davlati shakllandi. Miloddan avvalgi I ming yillikning boshlarida Ossuriya harbiy jihatdan kuchli imperiyaga aylanib, Nineviya kabi yirik shaharlarni bunyod etdi va o'z davrining eng katta kutubxonalaridan birini Ashshurbanipal kutubxonasini tashkil qildi.

E'tiborlisi shundaki, bu davlatlarning har biri o'zidan oldingi davr merosini butunlay inkor etmagan, aksincha uni rivojlantirib davom ettirgan. Akkadliklar Shumer yozuvi va dinini o'zlashtirgan bo'lsa, bobilliklar akkad tilini davlat tili sifatida saqlab qolgan, ossuriyaliklar esa Bobil ilmiy-adabiy merosini o'z kutubxonalarida ko'chirib, avlodlarga yetkazgan. Dyakonovning fikricha, aynan shu



davomiylik Mesopotamiya sivilizatsiyasini deyarli uch ming yil davomida barqaror saqlab turgan asosiy omil bo'lgan.

Mesopotamiya sivilizatsiyasining eng buyuk yutuqlaridan biri - mixxat (klinopis) yozuvining ixtiro qilinishi bo'ldi. Dastlab xo'jalik hisob-kitoblari uchun ishlatilgan bu yozuv tizimi vaqt o'tishi bilan adabiy, diniy va huquqiy matnlarni bitish uchun ham qo'llanila boshlandi. Kramerning ta'kidlashicha, yozuvning paydo bo'lishi insoniyat tarixini "yozma" davrga o'tkazgan burilish nuqtasi hisoblanadi.

Shumerlar matematikada oltmish asosli sanoq sistemasini yaratdilar - bugungi kunda soatni 60 daqiqaga, aylanani 360 gradusga bo'lishimiz aynan shu meros bilan bog'liq. Astronomiya sohasida ular oy taqvimini ishlab chiqdilar, tibbiyotda esa dastlabki retseptlar va davolash usullarini yozib qoldirdilar.

Adabiyot sohasida "Gilgamish haqida doston" jahon adabiyotidagi eng qadimgi yirik badiiy asarlardan biri sifatida katta ilmiy ahamiyatga ega. Unda inson va o'lim, do'stlik va abadiyat mavzulari ko'tarilgan bo'lib, keyinchalik ko'plab xalqlar og'zaki va yozma ijodiga ta'sir ko'rsatgan.

Diniy e'tiqod jihatidan mesopotamiyaliklar politeist, ya'ni ko'p xudolilikka asoslangan dinni tutgan. Har bir shahar o'z homiy xudosiga ega bo'lib, ziggurat deb ataluvchi ulkan ibodat minoralari qurilgan. Bu minoralar nafaqat diniy, balki ilmfan (astronomiya kuzatuvlari) markazlari vazifasini ham bajargan.

Me'morchilik sohasida ham Mesopotamiya o'ziga xos yo'nalish yaratdi. Tosh yetishmagani bois asosiy qurilish materiali sifatida quyoshda quritilgan va pishirilgan g'ishtdan foydalanilgan. Saroylar, ma'badlar va ziggurat inshootlari pog'onali shaklda qurilib, ularning devorlari rangli sirlangan g'ishtlar, relyeflar va mixxat bitiklari bilan bezatilgan. Bunday inshootlar nafaqat diniy maqsadlarga, balki hukmdor hokimiyatining ulug'vorligini namoyish etishga ham xizmat qilgan.

Tasviriy san'atda hukmdorlarning harbiy g'alabalari, ov manzaralari va diniy marosimlar aks ettirilgan bareleflar keng tarqalgan bo'lib, bu asarlar bugungi kunda qadimgi Mesopotamiya ijtimoiy hayoti va e'tiqodi haqida boy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Muzeylarda saqlanayotgan minglab muhrlar, haykalchalar va sopol buyumlar esa kundalik hayot tafsilotlarini o'rganishga imkon beradi.

Mesopotamiya jamiyati qat'iy ijtimoiy tabaqalanishga ega edi: hukmdor va zodagonlar, ruhoniylar, erkin fuqarolar (hunarmandlar, dehqonlar, savdogarlar) hamda qullar. Davlat boshqaruvida hukmdor cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lib, o'zini xudolar vakili sifatida namoyon qilgan.



Insoniyat tarixidagi eng mashhur yozma qonunlar to'plamlaridan biri - Hammurapi qonunlari mil. avv. 1750-yilga yaqin qora bazalt ustunga o'yib yozilgan. Qonunlar to'plami 282 moddadan iborat bo'lib, mulkiy munosabatlar, oila-nikoh masalalari, mehnat haqi, javobgarlik kabi hayotning turli sohalarini tartibga solgan⁶.

Qonunlarning asosiy tamoyili "ko'zga-ko'z, tishga-tish" nomi bilan mashhur bo'lgan talion prinsipi edi, biroq jazo choralari jinoyatchi va jabrlanuvchining ijtimoiy mavqeiga qarab farqlangan. Bu jihat qadimgi huquqning ijtimoiy tabaqalanishni aks ettirganini ko'rsatadi.

Hammurapi qonunlaridan oldin ham Mesopotamiyada yozma huquqiy hujjatlar mavjud bo'lgan - jumladan, Ur-Nammu qonunlari (mil. avv. XXI asr) va Lipit-Ishtar qonunlari insoniyat tarixidagi eng dastlabki qonunlar to'plamlaridan hisoblanadi. Biroq aynan Hammurapi to'plami o'zining to'liqligi, tizimliliigi va keng qamrovi bilan ajralib turadi hamda keyingi huquqiy tizimlarga, jumladan qadimgi yahudiy va rim huquqiga ham bilvosita ta'sir ko'rsatgan deb hisoblanadi⁷.

Mesopotamiya tajribasi keyingi davr sivilizatsiyalari - Fors, Yunon, Rim, hatto O'rta Osiyo davlatchiligi shakllanishiga bilvosita ta'sir ko'rsatgan. Yozma qonunchilik an'anasi, markazlashgan davlat boshqaruvi tamoyillari, sug'orma dehqonchilik texnologiyalari asrlar osha rivojlanib, boshqa xalqlar tomonidan o'zlashtirilgan.

Zamonaviy fanning ko'plab sohaları: matematika, astronomiya, huquqshunoslik, adabiyotshunoslik o'z ildizlarini aynan Mesopotamiyadan olishini e'tirof etish o'rindir. Shu bois tarix fanida Mesopotamiya "sivilizatsiyalar beshigi" sifatida tan olinadi.

Mesopotamiya iqtisodiyotining asosini sug'orma dehqonchilik tashkil etgan: arpa, bug'doy, xurmo va sabzavotlar yetishtirilgan, chorvachilik: qo'y va echki boqish ham muhim o'rin tutgan. Hunarmandchilikda kulolchilik, to'quvchilik va metallga ishlov berish rivojlangan bo'lib, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning katta qismi savdo orqali qo'shni o'lkalarga chiqarilgan.

⁶ Saidov A. Davlat va huquq tarixi (qadimgi Sharq huquqi). — Toshkent: Adolat, 2005. — 214 b.

⁷ Saidov A. Davlat va huquq tarixi (qadimgi Sharq huquqi). — Toshkent: Adolat, 2005. — 214 b.



Savdo-sotiq munosabatlari xususiy shartnomalar, qarz hujjatlari va omonat tizimlari orqali tartibga solingan bo'lib, bu esa dastlabki iqtisodiy-huquqiy amaliyotning shakllanishidan dalolat beradi. Ma'badlar va saroylar nafaqat diniy, balki yirik xo'jalik markazlari sifatida g'alla omborlarini boshqargan, mehnat haqini natura shaklida to'lagan.

Bugungi kunda Ur, Uruk, Bobil va Nineviya kabi qadimgi shaharlar joylashgan hududlar arxeologik qazishmalar markaziga aylangan. Ushbu yodgorliklarning bir qismi YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, ular zamonaviy tarixchi va arxeologlar uchun Mesopotamiya haqidagi bilimlarni yanada boyitishda davom etmoqda.

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, Mesopotamiya nafaqat geografik tushuncha, balki insoniyat tarixidagi tub burilish nuqtasi hamdir. Dajla va Frot daryolari oralig'ida vujudga kelgan sug'orma dehqonchilik jamoaviy mehnat va boshqaruvni taqozo etib, o'z navbatida dastlabki shahar-davlatlar va davlatchilik institutlarining shakllanishiga zamin yaratdi.

Shumer, Akkad, Bobil va Ossuriya davlatlari misolida ko'rish mumkinki, Mesopotamiya sivilizatsiyasi bosqichma-bosqich rivojlanib, mixxat yozuvi, matematik va astronomik bilimlar, adabiy asarlar hamda Hammurapi qonunlari kabi jahon ahamiyatiga molik yutuqlarni yaratdi. Bu yutuqlar keyingi barcha Sharq va G'arb sivilizatsiyalari uchun poydevor vazifasini o'tadi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, Mesopotamiya sivilizatsiyasi o'rganilgan sari uning ta'sir doirasi haqidagi tasavvurlar ham kengayib bormoqda. So'nggi arxeologik va matnshunoslik tadqiqotlari Mesopotamiya bilan Hind vodiysi, Misr va hatto Markaziy Osiyo o'rtasida savdo-madaniy aloqalar mavjud bo'lganini tasdiqlaydi, bu esa qadimgi dunyo xalqlari bir-biridan ajralib emas, balki uzviy bog'liqlikda rivojlanganini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Mesopotamiyani o'rganish nafaqat qadimgi tarixni bilish, balki zamonaviy davlatchilik, huquq va fan tizimlarining kelib chiqish ildizlarini anglash uchun ham muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kramer S.N. History Begins at Sumer: Thirty-Nine Firsts in Recorded History. — Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1981. — 401 p.
2. Roux G. Ancient Iraq. — London: Penguin Books, 1992. — 560 p.



3. Bottéro J. Mesopotamia: Writing, Reasoning, and the Gods. — Chicago: University of Chicago Press, 1992. — 328 p.
4. Childe V.G. Man Makes Himself. — London: Watts & Co., 1936. — 274 p.
5. Oppenheim A.L. Ancient Mesopotamia: Portrait of a Dead Civilization. — Chicago: University of Chicago Press, 1964. — 432 p.
6. Дьяконов И.М. История Древнего Востока: Зарождение древнейших классовых обществ. — Москва: Наука, 1983. — 534 с.
7. Заблodka Ю. История Ближнего Востока в древности. — Москва: Наука, 1989. — 416 с.
8. Aminov T., Ne'matov N. Qadimgi dunyo tarixi. — Toshkent: O'qituvchi, 2010. — 288 b.
9. Saidov A. Davlat va huquq tarixi (qadimgi Sharq huquqi). — Toshkent: Adolat, 2005. — 214 b.
10. Encyclopaedia Britannica. Mesopotamia. — URL: <https://www.britannica.com/place/Mesopotamia> (murojaat sanasi: 2026-yil iyun).